

# XORAZM ILM ZIYO

## REPITITION TEST

### SAVOLLAR KITOBI

SAVOLLAR KITOBI RAQAMI:

Matematika (3.1)  
Fizika (2.1)  
Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

#### **DIQQAT!**

*Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.*

*Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!*

## MATEMATIKA


1. Agar  $[m]=[n]$  bo'lsa ( $[x]$  va  $\{x\}$  mos ravishda  $x$  ning butun va kasr qismi), u holda  $m^{va n}$  sonlar uchun qanday munosabat doim o'rinli?

- A)  $m, n \in Z$     B)  $m = n$   
 C)  $m - n = \{m\} - \{n\}$     D)  $m - n = \pm 1$

2.  $x < \frac{a-b}{2}, c < a-2y, b > c+2z$  bo'lsa, u holda  $x+y+z$  ni toping.

- A)  $x+y+z < b-c$     B)  $x+y+z < a-b-c$   
 C)  $x+y+z < a+b-c$     D)  $x+y+z < a-c$

3. Rasmda  $y = a \cdot \sqrt{(x-b)^2 + 2c} + d$  funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagi javoblardan qaysi biri doim noto'g'ri?



- A)  $a + d\sqrt{c} \leq 0$     B)  $bc + a < 0$   
 C)  $a\sqrt{c} + d < 0$     D)  $ab + c < 0$

4. Agar barcha  $x, y$  lar uchun  $x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^2$  tenglik bajarilsa,  $a+b+c+d$  ni toping.

- A) 2    B) -4    C) -1    D) -11

5. Piramida asosi teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Barcha yon qirralari asos tekisligi bilan bir xil burchak tashkil etadi. Piramida hajmining unga ichki chizilgan konus hajmiga nisbatini toping.

- A)  $\frac{3+2\sqrt{2}}{\pi}$     B)  $\frac{1+\sqrt{2}}{\pi}$     C)  $\frac{\sqrt{2}}{\pi}$     D)  $\frac{1}{\pi}$

6.  $\int \frac{dx}{4+x^2}$  ni hisoblang

- A)  $\frac{1}{2} \arctg \frac{x}{2} + C$     B)  $\frac{1}{4} \arctg \frac{x}{2} + C$   
 C)  $\frac{1}{2} \arctg x + C$     D)  $\frac{1}{2} \arctg \frac{x}{4} + C$

7. Natural  $n$  sonining kvadratini 10 ga bo'lgandagi qoldiqlar yig'indisini toping.

- A) 21    B) 25    C) 19    D) 45

8. Ayrim  $a, b, c, d$  sonlar uchun  $a \lg 2 + b \lg 3 + c \lg 5 + d \lg 7 = 2017$  bo'lsa,  $a+b+c+d$  ni toping.

- A) 4025    B) 0    C) 4034    D) 2017

9. Agar  $x < 0$  va  $0 < y < z$  bo'lsa,  $\frac{|z+y| - |x-y|}{|x| + |z|}$  ifodani soddalashtiring

- A)  $\frac{x+z}{x-z}$     B) -1    C) 1    D)  $\frac{x+z}{z-x}$

10.  $tg 4\alpha = -\frac{2}{3}$ . bo'lsa,  $ctg \alpha - tg \alpha - 2tg 2\alpha$  ning qiymatini toping.

- A) -2    B) -12    C) -6    D) -8

11. Arifmetik progressiya uchun  $a_1 = 2,5$ ;  $b_1 = 7,5$  va  $a_{100} + b_{100} = 10$  bo'lsa,  $a_1 + b_1, a_2 + b_2, \dots, a_n + b_n$  ketma-etlikning dastlabki 200 ta hadi yig'indisini toping.

- A) 200    B) 2000    C) 20    D) 20000

12.  $y > 0$  bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan  $A(1;0), B(1;y), C(10;y), D(12;0)$ . To'rtburchak dioganallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

- A) 1    B) 2    C)  $\sqrt{2}$     D)  $y$  ga bog'liq

13. Bir guruh bolalarning o'rtacha og'irligi 40 kg ga teng. Qiz bolalarning o'rtacha og'irligi 35 kg, o'g'il bolalarning o'rtacha og'irligi esa 50 kg ligi ma'lum. Agar guruh a'zolarining 22 nafari qiz bolalar bo'lsa, o'g'il bolalar sonini toping.

- A) 13    B) 11    C) 10    D) 12


14. Konusga shar ichki chizilgan. Konus asosining yuzi shar sirti yuziga teng. Konus o'q kesimi uchidagi burchakning tangenisi toping.

- A)  $\frac{7}{24}$     B)  $\frac{3}{7}$     C)  $3\frac{3}{7}$     D)  $3\frac{1}{7}$

15.  $y = \log_2(\arctg x + \text{arctctg} x)$  funksiyaning  $x = \frac{1}{2}$  nuqtadagi ikkinchi tartibli hosilasining qiymatini toping.

- A) 1    B) 0    C)  $\log_2 3$     D)  $-\log_2 3$

16. Rasmda  $ABC$  uchburchak berilgan. Agar  $DE \parallel BC$  va  $EF \parallel AB$  bo'lib,  $S_{ADE} = 24$ ,  $S_{EFC} = 20$  bo'lsa,  $BDEF$  to'rtburchakning yuzini toping.



- A)  $8\sqrt{30}$     B)  $4\sqrt{30}$     C)  $8\sqrt{30}$     D)  $4\sqrt{30}$

17. Ratsional sonlar to'plami qanday ko'rinishida yoziladi.

- A)  $Q = \{r | r = \frac{p}{q}, p \in Z, q \in Z\}$   
 B)  $Q = \{r | r = \frac{p}{q}, p \in Z, q \in Q\}$   
 C)  $Q = \{r | r = \frac{p}{q}, p \in N, q \in N\}$   
 D)  $Q = \{r | r = \frac{p}{q}, p \in Z, q \in N\}$

18. Biror ikki xonali son va uning raqamlari o'rnini almashtirib, ularni qo'shganda biror sonning kvadrati bo'ladigan barcha ikki xonali sonlarni toping.

- A) 29, 38, 45, 56, 65, 74, 83, 92  
 B) 29, 38, 47, 56, 65, 74, 83, 92  
 C) 29, 35, 45, 56, 65, 74, 83, 92  
 D) 29, 32, 47, 56, 65, 74, 83, 92

19. Agar  $\frac{3^x + 6^x + 9^x}{5^x + 10^x + 15^x} = \frac{18}{50}$  bo'lsa,  $x$  ni toping.

- A) 3 B) 2 C) 5 D) 4
20. Quyida keltirilgan jumalardan noto'g'risini toping.  
 A) Agar to'g'ri chiziq parallel to'g'ri chiziqlardan biriga perpendikulyar bo'lsa, ikkinchisiga ham perpendikulyar bo'ladi.  
 B) Agar mos ikki to'g'ri chiziq va kesuvchi hosil qilgan burchaklar teng bo'lsa, bir tomonli burchaklar yig'indisi  $180^\circ$  ga teng bo'ladi.  
 C) Mos tomonlari parallel bo'lgan uchburchaklar teng bo'ladi.  
 D) Ikki parallel to'g'ri chiziq va kesuvchi hosil qilgan mos burchaklar o'zaro teng bo'ladi.

21. Markazi (4; -5) nuqtada bo'lib koordinata boshidan o'tuvchi aylana tenglamasini toping.

A)  $(x-4)^2+(y+5)^2=16$  B)  $(x-4)^2+(y+5)^2=41$   
 C)  $(x-4)^2+(y+5)^2=49$  D)  $(x-4)^2+(y+5)^2=25$

22. 2001 ta butun musbat sonning ko'paytmasi 105 ga, yig'indisi 2021 ga teng. Bu sonlarning eng kattasi nimaga teng?

A) 15 B) 21 C) 35 D) 105

23.  $y = \frac{3}{x^2+3}$  funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

A)  $[1; +\infty]$  B)  $(0; 1]$  C)  $(0; +\infty]$  D)  $[1; +\infty)$

24. Agar  $|x+6| = \frac{x}{2} + a$  tenglama ikkita yechimga ega bo'lsa,  $a$  ning eng kichik butun qiymatini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

25. Ta'lim muassasasida barcha o'quvchilar kamida bitta ingliz yoki nemis tilida so'zlasha oladilar, ayrimlari esa ikkala tilni ham biladilar. O'quvchilarning 85% i ingliz tilini, 65% i esa nemis tilini biladilar. Ikkala tilni ham biladigan o'quvchilar barcha o'quvchilarning necha foizini tashkil etadi.

A) 45% B) 50% C) 75% D) 60%

26. Quyidagi dastur bajarilishi natijasida C va D o'zgaruvchilar qanday qiymat qabul qiladi?

Program vvv1;

Var A, B, C, D: integer;

Begin

A:=6;

B:=2\*A+8;

If B>A Then C:=B-A Else D:=A-B;

Writeln ('C=', C); Writeln ('D=', D);

End.

A) C=0, D=-12 B) C=14, D=0

C) C=14, D=-14 D) C=38, D=14

27. MS Excel.

$A1 = -3, A2 = 11, B1 = -17, B2 = 30$  bo'lsa,

=MAKC(ABS(A1)+B2;A2+B1) komandasi kiritilsa natija nimaga teng bo'ladi?

A) 36 B) 40 C) 24 D) 33

28.  $A =$  "kompyuter qurilmalarini boshqaruvchi dasturlar drayverlar deb ataladi".

$B =$  "Fayl nomida <, >, ? belgilarni ishlatish mumkin".

$C =$  "Total Commander qobiq dasturidir".

Yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi mantiqiy

ifodaning natijasini toping.

$$A \wedge \neg(C \vee \neg B)$$

- A) Ba'zi mulohazalarning qiymatini aniqlab bo'lmaydi  
 B) Rost  
 C) Ifodada xatolik bor  
 D) Yolg'on

29. Ma'murxon sakkizlik sanoq sistemasida (55; 100) oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Ma'rufxon esa shu sonlardan avval 5 raqami, so'ng 6 raqami qatnashgan barcha sonlarni o'chirib tashladi. Qolgan sonlar yig'indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.

A) 353 B) 423 C) 644 D) 541

30. Quyidagi *html*-hujjat kodi yozilishi bo'yicha kataklar ketma-ket sanalganda nechanchi katakda og'ma shiriftli marketlangan ro'yxat qo'llanilgan?

<table >>tr >>td colspan = 2 >>a href >

<test >test </a >>td rowspan = 2 >

<sup >>li >test <sup >>ul >>td >>tr >>tr >

<td >>img src = test.jpg >test </td >>td >

</dl >>sub >>dt >test <sub >>dl >>td >

</tr >>/table >

- A) Uchinchi katakda B) Birinchi katakda  
 C) Ikkinchi katakda D) To'rtinchi katakda

## FIZIKA

24. Agar  $|x+6| = \frac{x}{2} + a$  tenglama ikkita yechimga ega bo'lsa,  $a$  ning eng kichik butun qiymatini toping.

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

25. Ta'lim muassasasida barcha o'quvchilar kamida bitta ingliz yoki nemis tilida so'zlasha oladilar, ayrimlari esa ikkala tilni ham biladilar. O'quvchilarning 85% i ingliz tilini, 65% i esa nemis tilini biladilar. Ikkala tilni ham biladigan o'quvchilar barcha o'quvchilarning necha foizini tashkil etadi.

A) 45% B) 50% C) 75% D) 60%

26. Quyidagi dastur bajarilishi natijasida C va D o'zgaruvchilar qanday qiymat qabul qiladi?

Program vvv1;

Var A, B, C, D: integer;

Begin

A:=6;

B:=2\*A+8;

If B>A Then C:=B-A Else D:=A-B;

Writeln ('C=', C); Writeln ('D=', D);

End.

A) C=0, D=-12 B) C=14, D=0

C) C=14, D=-14 D) C=38, D=14

27. MS Excel.

$A1 = -3, A2 = 11, B1 = -17, B2 = 30$  bo'lsa,

=MAKC(ABS(A1)+B2;A2+B1) komandasi kiritilsa natija nimaga teng bo'ladi?

A) 36 B) 40 C) 24 D) 33

28.  $A =$  "kompyuter qurilmalarini boshqaruvchi dasturlar drayverlar deb ataladi".

$B =$  "Fayl nomida <, >, ? belgilarni ishlatish mumkin".

$C =$  "Total Commander qobiq dasturidir".

Yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi mantiqiy

ifodaning natijasini toping.

$$A \wedge \neg(C \vee \neg B)$$

- A) Ba'zi mulohazalarning qiymatini aniqlab bo'lmaydi  
 B) Rost  
 C) Ifodada xatolik bor  
 D) Yolg'on

29. Ma'murxon sakkizlik sanoq sistemasida (55; 100) oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Ma'rufxon esa shu sonlardan avval 5 raqami, so'ng 6 raqami qatnashgan barcha sonlarni o'chirib tashladi. Qolgan sonlar yig'indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.

A) 353 B) 423 C) 644 D) 541

30. Quyidagi *html*-hujjat kodi yozilishi bo'yicha kataklar ketma-ket sanalganda nechanchi katakda og'ma shiriftli marketlangan ro'yxat qo'llanilgan?

<table >>tr >>td colspan = 2 >>a href >

<test >test </a >>td rowspan = 2 >

<sup >>li >test <sup >>ul >>td >>tr >>tr >

<td >>img src = test.jpg >test </td >>td >

</dl >>sub >>dt >test <sub >>dl >>td >

</tr >>/table >

- A) Uchinchi katakda B) Birinchi katakda  
 C) Ikkinchi katakda D) To'rtinchi katakda

## FIZIKA

31. Elektromagnit to'lqin qaysi ikki muhit chegarasidan o'tganda chastota ortadi?


A) havo-suv B) shisha-suv

C) o'zgarmaydi D) shisha-vakuum

32. Birinchi plastinkasining zaryadi  $+2q$ , ikkinchi plastinkasining zaryadi  $-q$  bo'lgan havoli kondensatorning plastinkalari orasidagi elektr maydon kuchlanganligi moduli ifodasi qanday bo'ladi? Plastinkalar yuzalari bir xil va  $S$  ga teng.

A)  $\frac{q}{\epsilon_0 \cdot S}$  B)  $\frac{2 \cdot q}{3 \cdot \epsilon_0 \cdot S}$  C)  $\frac{3 \cdot q}{\epsilon_0 \cdot S}$  D)  $\frac{3 \cdot q}{2 \cdot \epsilon_0 \cdot S}$

33. Gorizontol sirtida 2 kg massalik jism joylashgan. Jism va gorizontol sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti  $\mu = 0,5$ . Jismga bikrligi 100 N/m bo'lgan prujina ulangan va kuch ta'sirida tortilmoqda. Jismning siljish momentidagi kuchning bajargan ishini toping.



A) 0,7 J B) 0,2 J C) 1 J D) 0,5 J

34. Latun idish isitilganida uning hajmi 0,6 % ga oshdi. Idishning tempertaurasi necha gradusga oshgan. Latunning chiziqli kengayish koeffitsiyenti  $2 \cdot 10^{-5}$  1/K ga teng.

A) 50 B) 300 C) 100 D) 150

35.  $q$  zaryadli zarracha induksiyasi  $B$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda aylana bo'ylab harakatlanmoqda. Zarracha to'la aylanganda uning impuls o'zgarishining modulini toping.

A)  $1,41qBR$  B)  $2qBR$  C) 0 D)  $qBR$

36. Sirtning egrilik radiusi 16 cm bo'lgan qavariq sferik ko'zguning optik o'qida joylashgan nuqtaviy yorug'lik manbaining tasviri ko'zgu qutbidan 6 cm uzoqlikda hosil

bo'ldi. Yorug'lik manbaidan ko'zgu qutbigacha bo'lgan masofani (cm) toping?

- A) 18 B) 12 C) 24 D) 48

37. 20 g radioaktiv preparatning aktivligi 120 at/s bo'lsa, 60 g ining aktivligi qancha (at/s) bo'ladi?

- A) 720 B) 360 C) 240 D) 120

38. To'lqin tebranishining bitta to'liq sikli tugallaganida, to'lqin ..... bo'yicha harakat qiladi.

- A) 0,5 to'lqin uzunligi, 1 davr va 4 amplituda  
B) 0,5 to'lqin uzunligi, 1 davr va 2 amplituda  
C) 1 to'lqin uzunligi, 1 davr va 4 amplituda  
D) 1 to'lqin uzunligi, 2 davr va 4 amplituda

39. Normal sharoitda gaz molekullari orasidagi o'zaro ta'sir muvozanat masofasini baholang.

- A) 1 fm B) 1 nm C) 1 pm D) 1 mm

40. "Adron" so'zining ma'nosi "og'ir" degani. Shunga ko'ra faqat adronlar ishtirok etgan javobni ko'rsating.

- A) proton, antiproton, antineytrino  
B) elektron, proton, neytron  
C) proton, antineytron, neytrino  
D) proton, antineytron, antiproton

41. Massasi 1 kg bo'lgan bolg'acha bilan 75 g massali mix devorga qoqilmoqda. Berilgan shartlardan bolg'achaning FIK aniqlansin (%).

- A) 0,64 B) 0,7 C) 0,56 D) 0,93


42. To'lqin uzunligi  $0,331 \mu\text{m}$  bo'lgan ultrabinafsha nurlari qattiq jism sirtiga tik yo'nalishda tushmoqda. Sirdan ultrabinafsha nurlari oqimining 10 % qaytayotgan bo'lsa, ultrabinafsha nurlari tomonidan jism sirtiga ta'sir etuvchi kuch impulsini toping ( $\text{N}\cdot\text{s}$ ).  $h = 6,62 \cdot 10^{-34} \text{ J}\cdot\text{s}$ .

- A)  $2,2 \cdot 10^{-27}$  B)  $1,1 \cdot 10^{-27}$   
C)  $1,6 \cdot 10^{-27}$  D)  $3,2 \cdot 10^{-27}$

43. Ikki kogerent manbadan chiqayotgan amplitudasi A va to'lqin uzunligi 360 nm bo'lgan nurlarning interferensiyalanishi natijasida fazoning ma'lum nuqtasida  $\sqrt{2} \cdot A$  amplitudaga ega tebranishlar hosil bo'ldi. Nurlarning minimal yo'llar farqi (nm) nimaga teng?


- A) 90 B) 120 C) 60 D) 30

44. Kubni qo'zg'almas saqlab turish uchun unga qanday kuch qo'yish kerak (N)? Kub massasi  $M=3 \text{ kg}$ , yuk massasi  $m=1 \text{ kg}$  va u blokdan o'tgan ip orqali osilgan holda kubga tegib turibdi. Ishqalanishlarni hisobga olmang.



- A) 30 B) 20 C) 40 D) 10

45. Rasmda ko'rsatilganidek, ikki tomoni ham berkitilgan vaznsiz idishdagi suyuqlik A taglikka P bosim beradi. Agar idish  $180^\circ$  ga burib qo'yilsa, taglikka qanday bosim beradi?




- A)  $P/2$  B) P C)  $P/4$  D)  $2P$

46. Zaryadlangan metall sharcha yorug'lik tezligiga yaqin

tezlikda harakatlanganda uning zaryad zichligi qanday o'zgaradi?


- A) ortadi B) sharchaning radiusiga bog'liq  
C) kamayadi D) o'zgarmaydi

47. To'rta metall brusok rasmda ko'rsatilgandek bir-biriga zich qilib joylashtirilgan. Strelkalar yordamida issiqlik o'tkazishi ko'rsatilgan. Shu paytda brusoklar haroratlari quyidagiga teng:  $100^\circ\text{C}$ ,  $80^\circ\text{C}$ ,  $60^\circ\text{C}$  va  $40^\circ\text{C}$ . Brusoklardan qaysi biri  $60^\circ\text{C}$  ga teng?



- A) 2 B) 4 C) 3 D) 1

48. m massali OA balka sharnirga O nuqtada mahkamlangan va AB ip yordamida bog'langan va gorizontol holatda turipdi. Agar OAB burchak  $\pi/6$  ga teng bo'lsa, ipning taranglik kuchini toping.



- A)  $2mg$  B)  $mg$  C)  $mg/3$  D)  $mg/2$

49. Plastilindan ishlangan  $m=0,05 \text{ kg}$  massali shar 1 m/s tezlikka ega. Shar prujinaga bog'langan tinch holatdagi  $M=0,2 \text{ kg}$  massali brusokga kelib urildi va yopishib qoldi. Sistema tebranishining to'la mexanik energiyasini toping (mJ).



- A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

50. Elektron bilan pozitron nimasi bilan farq qiladi?

- A) energiyasi bilan B) magnit momenti bilan  
C) zaryadi bilan D) massasi bilan

51. 10 cm radiusli parafin shar  $1 \mu\text{C}/\text{m}^3$  zichlikli hajmiy zaryad bilan zaryadlangan. Shar markazidagi elektr maydon potentsiali aniqlansin (V).

- A) 4,73 B) 472 C) 45 D) 4,72

52. Ikki atomli ideal gazning bosimini o'zgartirmay hajmi 18 % ga oshirilsa, uning ichki energiyasi necha foizga o'zgaradi?

- A) 30 B) 20 C) 18 D) 35

53. Qandaydir jarayonda ideal gazning holat tenglamasi  $P \cdot V^3 = \text{const}$  ko'rinishga ega. Gazning hajmi 2 marta ortganda, uning absolyut harorati qanday o'zgaradi?

- A) 4 marta ortadi B) 2 marta kamayadi  
C) 2 marta ortadi D) 4 marta kamayadi

54. Ma'lumki, elektr tokini yaxshi o'tkazuvchilar issiqlikni ham yaxshi o'tkazuvchilar sifatida tavsiflanadi. Bunga sabab.....

- A) ular yuqori elastik kristall panjaraga ega ekanligi  
B) ikkala jarayonda ham yuza holatlarining muhimligi  
C) ikkala jarayonda ham o'tkazuvchanlik elektronlarning qatnashganligi  
D) ular mumkin bo'lgan elektron energiya bog'lari orasida energiya bo'shliqlariga ega ekanligi

55. Tosh gorizontol yo'nalishda otilganda 10 m/s tezlik bilan otilgandan 3 sek o'tgach, tosh traektoriyasining egrilik radiusi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

- A) 305 m B) 309 m C) 300 m D) 600 m

56. O'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi 5 s da 0 dan 10 A gacha chiziqli ortgan bo'lsa, shu vaqt ichida o'tkazgich ko'ndalang kesimidan qancha zaryad oqib o'tgan (C)?  
A) 25 B) 5 C) 50 D) 2,5
57. Elektr plita spiralining uzunligini 4 marta kamaytirsak, ajralib chiqayotgan quvvat qanday o'zgaradi?  
A) 4 marta kamayadi B) 2 marta oshadi  
C) 2 marta kamayadi D) 4 marta oshadi
58. E.Yu.K lari 18 V va 4 V, ichki qarshiliklari bir xil va 2  $\Omega$  bo'lgan ikki tok manbai musbat qutblari bilan o'zaro ketma-ket ulanib, 10  $\Omega$  tashqi qarshilikka ulansa, tashqi qarshilikdagi kuchlanish necha voltga teng bo'ladi?  
A) 14 B) 8 C) 5 D) 10
59. Gazni o'zgarimas bosimda 25  $^{\circ}\text{C}$  ga isitish uchun 500 J issiqlik sarflanib, shu gazni o'zgarimas hajmda 75  $^{\circ}\text{C}$  ga sovutilganda 1,07 KJ issiqlik ajralgan bo'lsa, gazning molyar issiqlik sig'imlari nisbatini aniqlang.  
A) 1,2 B) 1,8 C) 1,4 D) 1
60. 1 kg massali moddiy nuqta tekis harakatlanib 2 s vaqt davomida radiusi 1,2 m bo'lgan chorak aylana chizadi. Nuqta impulsining o'zgarishi topilsin (kg $\cdot$ m/s).  
A) 1 B) 2 C) 1,53 D) 1,33

## ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Quyidagi qaysi gapda tobe qism sifatga bog'langan?  
1. Agarda birorta kichikroq baliq suv yuziga suzib chiqsa, mushuk bir hamla bilan ushlab olar edi.  
2. Dunyoda do'stlikdan afzalroq narsa yo'q.  
3. Atrofdagi go'zal va ajoyib gullar o'sar edi.  
4. Bugun Nilufar hammadan ko'p paxta terdi.  
5. Go'zallikdan ezgulik yaxshiroqdir.  
A) 2, 5 B) 2, 4, 5  
C) 1, 2, 5 D) 1, 2, 3, 5
62. **Men shu uzundan-uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanchli ahvolga tushmagandim.** Berilgan gapda kishilik olmoshi qaysi bo'lakka tobelangan?  
A) kesim B) to'ldiruvchi  
C) aniqlovchi D) hol
63. Qaysi qatorda zid ma'noli so'zlar birgalikda yangi so'z hosil qilgan?  
A) uzun-qisqa, kecha-kunduz, ozg'in-semiz  
B) yosh-u qari, achchiq-chuchuk, uzoq- yaqindan  
C) katta-kichik, urush-tinchlik, baland-past  
D) yaxshi-yomon, yangi-eski, oq-qora
64. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin qanday tinish belgisi ishlatiladi?  
A) vergul B) ikki nuqta  
C) nuqtali vergul D) tire
65. 1) O't (olov) , 2) o't (o'simlik), 3) o't (harakat) omonim so'zlariga grammatik qo'shimcha qo'shilganda, omonimlik munosabati saqlanadimi?  
A) birinchi va uchinchi so'z orasida saqlanadi  
B) saqlanmaydi  
C) faqat dastlabki ikki so'z orasida saqlanadi

D) saqlanib qoladi

66. Qonun barchaga barobarmi?, Kafolat va'da emas, Chetlatilgan mutaxassis, Tuya ko'rdingmi, yo'q, Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin kabi sarlavhali materiallar qaysi uslubga xos?  
A) rasmiy uslub B) badiiy uslub  
C) publitsistik uslub D) ilmiy uslub
67. Gapning egasi ajratilgan gapni toping  
A) Uzoqdan otliqlarning-Alisher va uning hamrohlarining-qorasi ko'rindi  
B) Bu xabar ko'plarni, shu jumladan Mahkamni ham, juda quvontirdi  
C) Biz - hammamiz, bir oilaning bolasimiz  
D) Paxtakor o'zbekman-zabardast, mag'rur
68. Quyidagi qaysi yasama so'zda lab undoshlari ishtirok etgan?  
A) daraxt B) oshiq C) gulzor D) bilimdon
69. Hech bo'lmasa bir kun vaqtlitiroq uyg'onsang, shu devorning nuragan joylarini suvab qo'yarding, akangga ham qarasharding.  
Ergashgan gapning turini aniqlang.  
A) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap  
B) bir necha bosh gapli qo'shma gap  
C) aralash qo'shma gap  
D) bir necha ergash gapli qo'shma gap
70. Qator undoshli so'zlar berilgan javobni belgilang.  
A) paxta, nimcha, o'simlik  
B) stol, do'st, daraxt  
C) ikki, million, metall  
D) traktor, paxta, chaqqon
71. Qaysi gapda o'zlik olmoshi shaxsni emas, predmetni ko'rsatish uchun qo'llangan?  
A) O'zlik olmoshi predmetni ko'rsatish uchun ishlatilmaydi.  
B) Olma o'zi pishib, o'zi to'kildi.  
C) Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman.  
D) Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'iday asraymiz.
72. Egasi umumlashgan gapni belgilang.  
A) Bilmaganni so'rab o'rganmoq lozim.  
B) Bilmagan ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma.  
C) O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar.  
D) Vazifani vijdonan bajarish kerak.
73. «Fuqarolar millatlararo myomata tilini o'z xohishiariga ko'ra tanlash huquqiga egadirar». Ushbu fikr «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasida aks etgan?  
A) 10-moddada B) 2-moddada  
C) 3-moddada D) 6-moddada
74. Vatan! Taqdiringning toshi bemiqdor,  
Aytgin, fido bo'lay qaysi bir toshga?  
Ushbu she'riy parchada nechta sodda yasama so'z qatnashgan?  
A) 4 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 1 ta
75. Hokkey, muxojir, nadomat, tutiriqsiz, vakuum hashorat, fuqaro Mazkur so'zlardan nechitasi to'g'ri yozilgan?  
A) 2 tasi B) 4 tasi C) 3 tasi D) 1 tasi

76. «Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi iimiy qoidalari va normalariga rioya etiladi». Ushbu fikr «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasida aks etgan?  
A) 8-moddada B) 5-moddada  
C) 7-moddada D) 6-moddada
77. Qaysi sonlar sehrli sonlar sifatida ham talqin qilinadi?  
A) uch, sakkiz, to'qqiz, qirq  
B) uch, yetti, to'qqiz, qirq  
C) uch, yetti, bir, qirq  
D) ikki, yetti, to'qqiz, qirq
78. «Toleyim shulki, jahonda bir guliston tanladim». Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?  
A) kesim ergash gap B) ega ergash gap  
C) to'ldiruvchi ergash gap D) hol ergash gap
79. To'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.  
mobodo, mash'um, muzofot, mojoro, hasad  
A) 3 B) 2 C) 4 D) 1
80. Tub so'zlar berilgan javobni toping.  
A) bugun, baldoq, oltov, ertaga  
B) qalin, bog'lash, badavlat, or-nomus  
C) bor, kel, to'y-tomosh, erksevar  
D) ochko'z, tush, bola, guldon
81. Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,  
Koshifi asrori haqiqatdur ul.  
«Hayrat ul-abror»da ushbu ta'rif qaysi shoir haqida aytilgan?  
A) Ganjaviy B) Jomiy  
C) Dehlaviy D) Navoiy
82. Zulfiya «Bog'lar qiyg'os gullaganda» she'rida «orqa tog'» deb kimni yoki nimani aytadi?  
A) o'zbek xalqini B) bog'dagi daraxtlarni  
C) yozgan she'rlarini D) o'tgan umrni
83. «Al-adab al-mufrad» asarida kimda shu xislat bo'lmasa, u aybli va nuqsonli bo'ladi deb nima aytilgan?  
A) chiroylilik B) aqllilik  
C) ilmlilik D) muloyimlik
84. Go'ro'g'li Avazxonni qayerdan olib keladi?  
A) Shirvondan B) Vayangandan  
C) Arzrumdan D) Xunxordan
85. «Xazoyin ul-maoniy» dagi asarlarni yoshga qarab, taqsimlab chiqing.  
1) «Badoye' ul-vasat»,  
2) «G'aroyib us-sig'ar»,  
3) «Favoyid ul-kibar»,  
4) «Navodir ush-shabob»  
a) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha;  
b) 20 yoshdan 35 yoshgacha;  
c) 35 yoshdan 45 yoshgacha;  
d) 45 yoshdan 60 yoshgacha  
A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a  
C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b
86. Ganjaviy o'z Xamsasini qanday nom bilan ataydi?  
A) «Panj ganj» B) «Hasht behisht»  
C) «Haft paykar» D) «Haft avrang»
87. «Muzqaymoq» hikoyasida bolaning onasining ismi kim edi?  
A) Gulnor B) Gulshan C) Nodira D) Bashor
88. «Agar, darkor bo'lsa har choq, Chorlasa Vatan, Qo'lyozmalarimni tashlab, Shinel kiyaman» deya yozgan shoir kim?  
A) Oybek B) U. Nosir  
C) G'. G'ulom D) Mirtemir
89. 1937-1940-yillar ichida Mirkarim Osim Navoiyning hayot va ijod yo'llarini keng aks ettiruvchi qaysi qissa va hikoyalarni yozdi?  
A) «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Singan setor», «Ulug'bek va Navoiy».  
B) «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy».  
C) «Singan setor», «Alisher va Darvishali», «Ulug'bek va Navoiy».  
D) Barchasi to'g'ri
90. «Kul tigin» bitiktoshida yozilishicha, «Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda, ikkisining o'rtasida inson bolalari paydo bo'lgan. Inson bolalari ustidan kimlar xoqon bo'lib o'tirganlar?»  
A) To'g'ri javob yo'q.  
B) Bilga xoqon, Bo'min xoqon.  
C) Bo'min xoqon, Istami xoqon.  
D) Bilga xoqon, Istami xoqon.

Tuzuvchilar: Salayev S.R (mat)  
Jumaniyazov T. Ya. (Fiz)